

Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar– sentabr


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi 67,6 % ni tashkil etdi.
- 5,7 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 12,1 birlikni taskil qildi.

2019 yilning yanvar-sentabrida 5,7 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 martaga ko'p demakdir.


Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (45,8 %), sanoatda (25,0 %), qurilishda (7,3 %), yashash va ovqatlanishda (6,4 %), tashish va saqlashda (3,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3,6 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2019 yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko’rsatkichlari

	O’Ichov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	22583	28583	6000
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2930	5747	2817
YaHM	%	71,4	67,6	-3,8
Sanoat	%	37,2	42,7	5,5
Qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	%	97,3	97,3	0,0
Investitsiya	%	65,0	57,3	-7,7
Qurilish	%	94,1	85,9	-8,2
Savdo	%	89,0	87,5	-1,5
Xizmatlar	%	74,7	71,9	-2,8
Yuk tashish	%	95,6	95,6	0,0
Yuk aylanmasi	%	96,4	96,8	0,3
Yo’lovchi tashish	%	94,2	95,0	0,8
Yo’lovchi aylanmasi	%	95,9	96,2	0,3
Eksport	%	48,5	53,9	5,4
Import	%	54,0	76,7	22,7



**2019 yilning yanvar- sentabrida kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari, %**




Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlik

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
Farg'ona viloyati	2930	5747
Oltiariq	179	332
Qo'shtepa	64	165
Bag'dod	83	217
Buvayda	162	280
Beshariq	92	181
Quva	124	359
Uchko'prik	157	274
Rishton	93	230
So'x	59	75
Toshloq	129	235
O'zbekiston	140	271
Farg'ona t.	103	285
Dang'ara	103	290
Furqat	78	128
Yozyovon	70	105
Farg'ona sh.	531	890
Qo'qon sh.	379	687
Quvasoy sh	121	198
Marg'ilon sh.	263	545

2019 yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Farg'ona (890 ta), Qo'qon (587 ta), Marg'ilon (545 ta) shaharlarida. Quva tumanida - 359 ta, Oltiariq tumanida -332 ta, Dang'ara tumanida - 290 ta. Farg'ona, Buvayda, Uchko'prik, O'zbekiston, Toshloq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 285-235 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Yozyovon tumanida – 105 ta, So'x tumanida –75 tani tashkil etgan.



2019 yil yanvar-sentabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahriga - 15,5 %, Qo'qon shahri - 12,0 %, Marg'ilon shahri - 9,5 %, Quva tumani - 6,2 %, Oltiariq tumani - 5,8 %, Dang'ara tumani - 5,0 %, Farg'ona - 4,9 %, Buvayda tumani - 4,9 %, Uchko'prik - 4,8 %, O'zbekiston tumani - 4,7 %, shuningdek Quvasoy shahar, Toshloq, Rishton, Bag'dod, Qo'shtepa, Beshariq va Furqat tumanlari 2,2-4,1 foiz oralig'ida tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich So'x (1,3 %) va Yozyovon (1,8%) tumanlarida kuzatilgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
Jami	2930	5747
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	204	206
Sanoat	908	1434
Qurilish	347	420
Savdo	680	2634
Tashish va saqlash	132	223
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	164	365
Axborot va aloqa	65	76
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	93	81
Boshqa turdag'i xizmatlar	337	308

Ma'lumot uchun: 2019 yil yanvar-isentabrdan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda - **2634 ta**, shuningdek :

sanoatda - 1434 ta;

qurilishda - 420 ta;

yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar –365 ta;


qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 206 tani tashkil etdi.

**Yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar
bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan
shahar va tumanlar**



2019 yil yanvar-sentabrdagi yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Farg'ona shahrida – 890 ta, Qo'qon shahrida - 687 ta, Marg'ilon shahrida - 545 ta, Quva tumanida - 359 ta, Oltiariq tumanida—332 ta, Dang'ara tumanida - 290 ta, Farg'ona tumanida bu ko'rsatkich 285 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 18,6 birlikda, Qo'qon shahrida 16,2 birlikda, Quvasoy shahrida 15,3 birlikda, Dang'ara tumanida 14,3 birlikda, Furqat tumanida 14,2 birlikda, Marg'ilon shahrida 14,0 birlikda, Quva tumanida 13,5 birlikda aniqlandi. Beshariq tumanida 6,5 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**Hudular bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlik)**




Ma'lumot uchun: Agar, 2018 yilning yanvar-sentabrida viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni har 1000 aholiga 11,8 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 12,1 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 0,3 birlikka ko'paydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga.**



Quyida, 2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 42,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 97,3 %, qurilishda - 85,9 %, investitsiyada - 57,3 %, savdoda - 87,5 %, eksportda - 53,9 %, importda - 76,7 % va xizmatlar sohasidagi ulushi - 71,9 % ekanligi aniq ko'rsatilgan.

**2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**




**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar - sentabr holatiga, %**


2019 yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi lushi 67,6 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar - sentabrida 71,4 %).

YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.


2019 y.



2018 y.



**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan %da)**



● 2018 yil yanvar - sentabr ● 2019 yil yanvar - sentabr

**2019 yil yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Farg'ona viloyati	42,7	85,9	71,9	57,3
<i>hududlar</i>				
Oltiariq	100,0	99,6	96,3	74,6
Qo'shtepa	100,0	99,7	99,5	79,8
Bag'dod	38,5	93,0	97,5	87,6
Buvayda	100,0	98,5	99,2	83,9
Beshariq	39,1	30,0	96,8	9,8
Quva	49,1	99,5	93,6	89,2
Uchko'prik	92,1	97,2	97,6	93,4
Rishton	31,5	99,0	94,4	58,0
So'x	100,0	98,9	98,3	37,7
Toshloq	27,0	99,2	97,8	81,5
O'zbekiston	68,1	99,3	98,5	95,7
Farg'ona t	90,5	91,9	85,5	78,9
Dang'ara	100,0	94,5	96,6	92,8
Furqat	100,0	99,7	99,1	81,9
Yozyovon	100,0	56,0	98,8	37,9
Farg'ona sh.	19,4	89,6	45,4	37,3
Qo'qon sh.	26,6	65,1	90,5	47,4
Quvasoq sh.	28,2	97,2	95,7	59,2
Marg'ilon sh.	98,4	99,9	97,0	89,4

Hududlar bo`yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Dang'ara, Furqat, Yozyovon tumanlari (100 %dan) tashkil etdi.

Qurilishda - Marg'ilon sh. (99,9 %), Qo'shtepa (99,7 %), Furqat (99,7 %), Oltiariq (99,6 %), Quva (99,5 %) va O'zbekiston (99,3%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shtepa (99,5%), Buvayda (99,2 %), Furqat (99,1%), Yozyovon (98,8 %), O'zbekiston (98,5 %), So'x (98,3 %), va Toshloq (97,8 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - O'zbekiston (95,7 %), Uchko'prik (93,4 %), Dang'ara (92,8 %) tumanlari va Marg'ilon (93,1 %) tshahri tashkil etadi.




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-sentabrida

- 1  6132,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi (jami sanoat ishlab chiqarishning 42,7 %);
- 2  4032,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 57,3 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 159,7 %ni tashkil etdi;
- 3  2703,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 85,9 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6 %ni tashkil qildi;
- 4  5750,3 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 71,9 %), 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil qildi;
- 5  chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 87,5 % yoki 7950,2 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 103,0 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6  235,0 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 53,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 45,3 mln. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga ko'p;
- 7  avtomobil transporti yuk aylanmasining 8,6 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,9 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8  yo'lovchi aylanmasining esa 2,1 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 96,2 %) ko'payishi ta'minlandi.



Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Marg'ilon sh., Oltiariq, Qo'shtepa, Bag'dod, Buvayda, O'zbekiston, Furqat, Yozyovon tumanlarida 100 % ni, Dan'ara tumanida - 99,6 %, Beshariq tumanida - 99,0 %, Uchko'prik tumanida - 95,2 %, Far'ona tumanida - 85,7 %, Quvasoy shahrida - 91,8 %, eng past ko'rsatkich Rishton tumanida - 46,0 %, Farg'ona shaharda - 38,7 %, Toshloq tumanida - 15,7 %, Qo'qon shaharda - 8,1 % ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlikdagi tovar va xizmatlar importining
jami import xajmidagi ulushi, %
2019 yil yanvar-sentabr**




2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik tashqi savdo aylanmasining viloyat jami tashqi savdo aylanmasidagi eng ko'p ulushi Oltiariq, Qo'shstepta, Buvayda O'zbekiston tumanlarida (100 % dan), eng past ko'rsatkichni Toshloq tumani (22,2 %), Farg'ona (35,5 %) va Qo'qon (48,6 %) shaharlari tashklil etdi.

**Kichik tadbirkorlik tashqi savdo aylanmasining viloyat jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi
2019 yil yanvar-sentabr, %**



● Eksport ● Import ● Tashqi savdo aylanmasi


2019 yil yanvar-sentabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar (1308,7 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (573,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (512,1 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (458,9 mlrd. so'm) va Quva tumani (350,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (125,9 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





2019 yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



- Oltiariq ● Qo'shtepa ● Bag'dod ● Buvayda ● Beshariq ● Quva ● Uchko'prik ● Rishton
- So'x ● Toshloq ● O'zbekiston ● Farg'ona t. ● Dang'ara ● Furqat ● Yozyovon ● Farg'ona sh.
- Qo'qon sh. ● Quvasoy sh. ● Marg'ilon sh.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Dang'ara, Furqat va Yozyovon tumanlari (100,0 %dan). Bundan tashqari, Marg'ilon shahar (98,4%), Uchko'prik tumani (92,1%), Far'ona rumani (90,5%), O'zbekiston tumani (68,1%), Quva tumani (49,1%), Beshariq tumani (39,1%), Bag'dod tumani (38,5%) da kichik biznesning ulushi o'rta darajada bo'lib, Rishton tumani (31,5%), Quvasoy shahrida (28,2%), Toshloq tumani (27,0%) hamda Qo'qon (26,6%) va Farg'ona (19,4%) shaharlarida esa kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

**2019 yil yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi, mln. so'm**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri (1651,1 mlrd. so'm), Qo'qon shahr (1136,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (622,6 mlrd. so'm), Qo'shtepa (445,1 mlrd. so'm), Quva (402,2 mlrd. so'm) va Farg'ona (340,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019 yil yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (590,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (265,2 mlrd. so'm), Quvasoy shahar (237,0 mlrd. so'm) Qo'qon shahar (188,7 mlrd. so'm) hamda Dang'ara (169,1 mlrd. so'm), Qo'shtepa (139,3 mlrd. so'm), Quva (134,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



2019 yil yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlat sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Farg'ona shahar (1691,0 mln. so'm), Qo'qon shahar (940,6 mln.so'm), Marg'ilon shahar (791,0 mln.so'm), Uchko'prik (208,5 mln.so'm), Oltiariq (201,1 mln.so'm) va Farg'ona (189,0 mln.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil III chorak yakunlariga ko'rta yangi tashkil topgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuv o'tkazildi. unda 165 ta respondenrt ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 42 (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonidan 25,5 %), savdo - 73 (44,2 %), xizmatlar sohasi - 31 (18,8 %), qurilish - 13 (7,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 6 (3,6 %).



2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Farg'ona shahrida - 13,9 % (23ta), Marg'ilon shahar - 13,3 % (22ta), Qo'qon shahar - 10,9 % (18ta), Uchko'prik tumanida - 7,9 % (13ta), Farg'ona tumanida - 7,9 % (13ta), Quva tumanida - 6,7 % (11ta), Qo'shtepa tumanida - 5,5 % (9ta).

Tarmoq	birlikda
Sanoat	42
Qurilish	13
Savdo	73
Xizmatlar	31
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6

2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kivhik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kivhik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, foizda




Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 38,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 61,5 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 52,1 % va 45,2 %, xizmatlar sohasida – 51,6 % va 41,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,0 % va 100 %, sanoatda – 33,3 % va 52,4 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 14,7 %, qurilishda – 5,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 11,1 %, xizmatlarda – 9,3 % va savdoda – 1,9 %ni tashkil qildi.




**Iqtisodiy vaziyatni baholash
2019 yil III chorak uchun, %**



Taqqoslash uchun: 2018 yilning III choragida qurilish sohasida respondentlarning 77,8 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 22,2 % esa qoniqarli deb hisoblagan, mos ravishda savdo sohasida – 72,2 % va 22,2 %, xizmatlar sohasida – 63,6 % va 27,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 27,0 % va 54,8 %, sanoatda – 80,0 % va 20,0 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.



Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 59,5 % -sanoat korxonalari, 75,3 % – savdo, 58,1 % – xizmatlar, 33,3 % – qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi va 69,2 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: J.Artikov

Tel.: (0371) 230-87-35, (0373) 241-98-48